
AYRIM SPORTCHILAR OLIMPIYA VA PARALIMPIYAGA TAYYORLASH MARKAZLARIGA IMTIYOZLI QABUL QILINADI



Ayrim sportchilar olimpiya va paralimpiyaga tayyorlash markazlariga imtiyozli qabul qilinadi

2022-yil 30-dekabrda Vazirlar Mahkamasi tominidan qabul qilingan 731-sonli “Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarorga ko’ra, quyidagi sportchilar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazning 5-sinfiga, shuningdek, paralimpiya sport turlari bo’yicha 10-sinfiga imtihon sinovlarisiz imtiyozli ravishda qabul qilinish belgilangan:

Sportning olimpiya va paralimpiya dasturlariga kiritilgan sport turlari bo’yicha O’zbekiston chempionati va kubogi g’olib va sovrindorlari (1–3-o’rinlar);

Olimpiya sport turlari bo’yicha sport terma jamoalari a’ziligiga hamda ularning zaxirasiga kirgan sportchilar.

Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo’limi inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo’llash amaliyotini o’rganish bo’linmasi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-03-30 17:09:02